FARG'ONA VILOYATI BAG'DOD TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 11 - yanvar 5-11-152-Q/22 Bag'dod tumani hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi to`g`risida

O`zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to`g`risida"gi Qonuni, O`zbekistonRespublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 20 yanvardagi 18-son "O`zbekiston Respublikasining uy-joy fondini davlat yo`li bilan hisobga olish to`g`risida"gi qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 02-sentyabrdagi 535-son "Kadastr sohasida ayrim davlat xizmatlari ko`rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to`g`risida"gi qarori, O`zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Farg'ona viloyat boshqarmasi Bag'dod tuman filiali (U.Eshonqulov) ushbu qaror bilan tasdiqlangan "Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berishtartibi" asosida ishyuritilishini ta'minlasin.

3. Mazkur qaror Bag'dod hayoti gazetasida rasman e'lon qilinsin
va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining o`rinbosari U.Yigitaliyev zimmasiga yuklatilsin

Tuman hokimi v.v.b. **Dexqonov S. G.**